

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'R TA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi  
5111600-308 raqami

Vazirlikning 2012 yil "14"  
nov dagi "107"-sonli  
buyruq'i bilan tasdiqlangan

2012 yil "14" nov



*Sh. Logueb*

MA'NAVIYATSHUNOSLIK

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar  
Ta'lif sohasi: 110000 – Pedagogika  
Ta'lif yo'nalihi: 5111600 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi

Toshkent – 2012

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'nalishlari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2012 yil "6" 03 dagi "1" - son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetida ishlab chiqildi va O'zbekiston Milliy universiteti bilan kelishildi.

**Tuzuvchilar:** Imomnazarov M.S., filologiya fanlari doktori, professor,  
Lapasov M., tarix fanlari nomzodi, professor  
Sobirova M.A., falsafa fanlari nomzodi, dotsent,

**Taqrizchilar:** Abdurahmonov M – O'zMU "Ma'naviyat asoslari va dinshunoslik" kafedrasi professori  
Haytboyev N. – Toshkent shahar O'MKHTB bosh mutaxassisi

Fanning o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-metodik birlashmasida tavsiya qilingan (2012 yil «9» 02 "7" - sonli majlis bayonnomasi).

## **Kirish**

Ming yilliklarning almashinushi ijtimoiy munosabatlarning yangi “axborotlashgan jamiyat” deb atalmish bosqichiga to‘g‘ri keladi. Texnogen tsivilizatsiyaning yanada rivojlanishi texnokratik tafakkurning shakllanishiga, bu esa ma’naviy madaniyatning yangi ko‘rinishiga olib keldi. Ma’naviyat, madaniyat, axloq, fan va axborot ijtimoiy hayotning eng muhim sohalaridan biriga aylandi. Shu bois, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekistonda inson ma’naviy kamoloti, yangi avlod tafakkurida gumanistik g‘oyalarni shakllantirish, ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish birinchi darajali masalaga aylandi. Darhaqiqat, bugungi kunda ma’naviyat jamiyatning strategik resursiga aylanmoqda. Bu esa uni takomillashtirish yo‘llari va imkoniyatlarini izlashni taqozo qiladi.

“Ma’naviyatshunoslik” fanining dasturida birinchi marta inson ma’naviy kamolotining asosiy omillari: madaniyat, axloq, nafosat, fan, axborotlashuv kabi masalalarning o‘zaro aloqadorlikdagi tahliliga e’tibor qaratiladi. Zero, har qanday fan xalqi ma’naviyatli va madaniyatli mamlakatda rivojlanishi mumkin.

Dastur besh bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limida ma’naviyat va madaniyat dinamikasi, ikkinchi bo‘limida insonning axloqiy tarbiyasi, uchinchi bo‘limida estetik didni shakllantirish omillari, to‘rtinchi bo‘limda fanning ma’naviy madaniyatni shakllantirishdagi roli, beshinchi bo‘limda axborotlashuvning ijtimoiy madaniy jarayonlarga ta’siri masalalari tahlil qilingan. Zero, ma’naviyat va u bilan bog‘liq masalalar bugungi kunda ham ilmiy-nazariy ham amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, uning ijtimoiy ahamiyatini ta’lim tizimida o‘rganish muhim.

## **Fanning maqsadi va vazifalari**

**O‘quv fanining maqsadi:** jamiyat taraqqiyotida ma’naviyat, madaniyat, axloq, nafosat, fan va axborot uyg‘unligining tahlili, bu sohadagi mavjud muammolar va istiqboldagi vazifalar haqida bilim egallashdan iborat.

**Fanning vazifalari:** “Ma’naviyat”, “Madaniyat”, “Axloq”, ”Nafosat”, “Fan”, “Axborot” tushunchalariga nisbatan asosiy nazariy yondashuvlarni;

- madaniy taraqqiyotning tendentsiyalari va muammolarining mohiyati;
- jamiyatning barcha sohalarini takomillashuvida ma’naviy kamolotning ahamiyatini;
- axborotlashgan jamiyatda muxandislik madaniyatining zarurligi;
- mustaqillik davrida demokratik jamiyat, hayotning erkinlashuvi va yangilanishi jarayonida ma’naviy madaniyatning ahamiyatini yoritish;

-axborotlashtirish va globallashuv sharoitida insonning ma’naviy madaniyatini shakllanishiga ta’sir qiluvchi salbiy illatlardan himoyalanish qobig‘ini yaratish malakalarini shakllantirishdan iborat.

## **Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar**

Ushbu fan talabalarning har tomonlama etuk, ma’nan barkamol bo‘lib kamol topishlari uchun zarurdir. Har bir talaba ushbu fan orqali:

- jahon ilmida ma’naviyat masalalarining o‘rganilishi, O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ushbu masalaga yangicha yondoshuvning shakllanishi va

ma’naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi, mustaqil O‘zbekiston sharoitida ma’naviyat omilining alohida ahamiyati haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

- O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida o‘z ifodasini topgan ma’naviyat nazariyasining umummetodologik asoslari, O‘zbekiston respublikasining ma’naviyat va ma’rifat kontseptsiyasining mohiyati, milliy ma’naviyat va umuminsoniy qadriyatlar nisbatini yaxshi anglashi;

- “ma’naviyat” tushunchasining turli ta’riflari va ularning o‘zaro nisbatlari, shaxs va millat ma’naviyatining asosiy jihatlari, ma’naviyat sohasining iqtisod, siyosat sohalari bilan munosabatlari, ma’naviyat va ruhiyatning o‘zaro nisbati, ma’naviyatining din, madaniyat, axloq bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari, falsafa va ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi, Bosh ma’naviy qadriyatlar – Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat va ularning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, ma’naviyatning san’at va adabiyotda namoyon bo‘lishiga oid masalalarda chuqur bilim va malaka hosil qilishi;

- milliy ma’naviy merosimiz to‘g‘risida imkon darajasida mukammal tasavvurga ega bo‘lishi, ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy boylikni har tomonlama va chuqur o‘zlashtirish, ajdodlarimiz merosining mohiyatini to‘g‘ri tushunib etishi;

- ayniqsa, Alisher Navoiy ma’naviy merosining bugungi kun o‘zbek milliy ma’naviyatining mukammal shakllanishidagiayricha ahamiyatini har taraflama tushunib etmog‘i;

- ma’naviyatning inson hayotida va insoniyat tarixi jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini har taraflama teran va jiddiy tasavvur qilmog‘i, millatning bugungi ma’naviy kamoloti uning tarixiy takomili jarayonida qadam-baqadam rivojlanib va yuksalib borganligini chuqur anglab etmog‘i;

- o‘zining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik faoliyatida ma’naviyat nazariyasi bo‘yicha olgan bilimlarini qo‘llay olishi, milliy ma’naviyatimiz an’analarini yosh avlod ongiga singdirish shakl va usullaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim.

### **Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi**

Mazkur fan 3-4-semestrda o‘qitilishga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv rejada rejalashtirilgan Ma’naviyat asoslari, Dinshunoslik, Madaniyatshunoslik, Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar, Ijtimoiy falsafa, G‘oyalar falsafasi, Qadriyatlar falsafasi, O‘zbek adabiyoti, Dunyo dirlari tarixi, Globallashuv asoslari, Geosiyosat asoslari, Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi kabi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan o‘zaro bog‘liq, uslubiy jihatidan uzviy ravishda va ketma-ketlik asosida o‘qitiladi.

### **Fanning ta’ilmdagi o‘rni**

“Ma’naviyatshunoslik” fani umumkasbiy fanlardan biri bo‘lib, talabalarda jamiyatda ma’naviyatga bo‘lgan ehtiyoj, ma’naviyatning mohiyati, ma’naviyat va milliy g‘oya munosabatlari, shaxs, ijtimoiy guruhlar ma’naviyati, barkamol avlodning ma’naviy qiyofasi to‘g‘risidagi malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishda, umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ma’naviy-ma’naviy

ishlarning samaradorligini yuksaltirishga oid bilimlar berishda asos bo‘ladi. Fanni o‘zlashtirish orqali bo‘lg‘usi mutaxassis keng qamrovli falsafiy bilimlaridan pedagogik, ilmiy va jamoatchilik faoliyatida foydalanishi, ijtimoiy jarayonlarga xolisona baho berishi mumkin.

Shuningdek mazkur fan dasturidan ma’naviy-ma’rifiy bo‘limlar, tashkilotlar o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yishda hamda modernizatsiyalash jarayonlarida foydalanishlari mumkin.

### **Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Mazkur kurs zamonaviy-ma’naviy barkamol, har jihatdan sog‘lom avlodni, komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta’minlanishga har jihatdan yaqindan yordam bermog‘i lozim. Kursni o‘qitishda yangicha fikrlaydigan, yanigicha tafakkur tarziga ega bo‘lgan, milliy g‘oya va mafkuraning asosiy tamoyillarini o‘zida mujassam etgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishga yordam berish nazarda tutiladi. Mana shu vazifalarni bajarishda bilimni talabalar ongiga singdirish, ularning amaliy faoliyatiga aylantirishda o‘qituvchi qanday pedagogik texnologiyalardan ijodiy foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin, darslarga ko‘rgazmalilikka - turli albom, plakatlar, badiiy asarlardan namunalar o‘qishga alohida ahamiyat-berish ham yaxshi natija beradi.

Ushbu fanni o‘qitishda pedagogik texnologiyaning Blits so‘rov, tarmoqlar, FSMU Debat, kabi usullaridan, pedagogik trening, pedagogik kvalimetriya-(o‘quvchini EHM vositasida testdan o‘tkazish) reyting asosida baholash kabi ta’limning yangi vositalaridan (tasviriy o‘quv matni, axborot tashuvchilar) hamda modul texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Metodik qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qurollar, ma’ruzalar va ta’limning interfaol metodlaridan foydalanish darsning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari talabalarning egallagan bilim va ko‘nikmalarini xolisona baholash uchun test usuli, reyting tizimi, talabaning bilim va ko‘nikmalarini egallah jarayonini nazorat etish usullaridan unumli foydalaniladi.

## **Asosiy qism**

### **Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni**

**“Ma’naviyatshunoslik” fanining ob’ekti, predmeti va ma’naviyatning jamiyat hayotidagi o‘rni.**

“Ma’naviyatshunoslik” fanining predmeti, mavzu doirasi, tarkibi, maqsad va vazifalari. Ma’naviyat tarixiy hodisa sifatida. Ma’naviyatning jamiyat hayotidagi o‘rni. “Ma’naviyatshunoslik” fanining metodologik asosi. masalasi. “Ma’naviyatshunoslik” tarixiy-nazariy fan sifatida.

#### **I bo‘lim.**

#### **Mustaqillik – ma’naviy tiklanish va yuksalish asosi**

**Mustaqil O‘zbekistonda ma’naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi va buning sabablari. Milliy ma’naviyat nazariyasining shakllanishida davlat rahbarining roli.**

Mustaqillik mas’uliyati. Milliy mustaqillik sharoitida ma’naviyat masalalarining dolzarblashuvi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ma’naviyat masalalariga alohida e’tibori. Insonlar ongidagi eski mafkura asoratlaridan qutulish muammosi va yangicha tafakkur zarurati. O‘zbekistonning siyosiy va iqtisodiy rivojida xalq ma’naviyatini yuksaltirishning ahamiyati.

I.A.Karimov asarlarida ishlab chiqilgan mustaqil O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy rivojlantirish kontseptsiyasi va uning tadrijiy xarakteri. Ma’naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi. Bugungi kunda milliy ma’naviyatimiz asoslarini ilmiy-nazariy o‘rganish zarurati. Ushbu muammoni hal qilishda erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar.

Islohotlar va ularning ma’naviy mezoni. Mustaqillik davrida ajdodlarimiz ma’naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi. Milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishi. Buyuk ajdodlarimiz, xalqimizning suyukli farzandlari xotiralarini yodlash – yosh avlodni milliy g‘urur va milliy iftixon ruhida tarbiyalashning ta’sirchan vositasi. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.

**Milliy g‘oya, mafkura, ma’naviyat. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma’naviyat nazariyasini umummetodologik asoslarining ishlab chiqilishi.**

O‘zbekiston Konstitutsiyasida yakka mafkura hukmronligini taqilanganishi va buning sabablari. Milliy g‘oyaning siyosiy, iqtisodiy ma’naviy jihatlari va ularning o‘zaro uyg‘unligi masalasi. Milliy mafkura va ma’naviyat nisbati. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida milliy ma’naviyat nazariyasiga oid masalalarning kun tartibiga qo‘yilishi va Prezidentning bu sohadagi amaliy tashabbuslari.

I.A.Karimovning mustaqil O‘zbekistonni siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy rivojini ta’minlash bo‘yicha yaratgan tadqiqotlari va ma’ruzalarida bugungi kun umumbashariy muammolariga munosabat va Borliq haqiqatiga yangicha

yondoshuvlarning namoyon bo‘lishi. Prezident asarlarida va milliy ma’naviyatimiz an’analarida “ko‘p qutbli dunyo” nazariyasi va uning bugungi kunimiz uchun ahamiyati. “Inson olam mehvvari” g‘oyasining Prezident asarlarida ifodalanishi va buning sabablari. Inson va jamiyat hayotida uch etakchi soha – siyosat, iqtisod va ma’naviyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash masalasi. Mustaqil O‘zbekiston davlatining ushbu muammoga alohida e’tibori.

### **“Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”.**

**Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari.**

**Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyatimizning uyg‘unligi.**

**Ijtimoiy fanlar metodologiyasi va milliy ma’naviy meros.**

O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Mustaqillik ma’naviyatining tayanch qoidalari. Milliy ma’naviyatimizning teran tomirlari. Mustaqillik davrida ajdodlarimiz ma’naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi.

Shaxs erki va ma’naviy takomil imkoniyatlari. Mustaqil O‘zbekistonda jahon madaniyatiga munosabat. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma’naviyat nisbati. Umumbashariy qadriyatlar qanday shakllanadi? Milliy ma’naviyatimizning umuminsoniy mohiyati.

Ijtimoiy fanlar metodologiyasi xususida. Ijtimoiy fanlarning tabiiy (tabiatga oid) va aniq (matematik) fanlar bilan o‘zaro umumiyligi va farqli tomonlari. Ijtimoiy fanlarning shakllanishida naqliy va aqliy bilimlar nisbati. Bugungi kun ijtimoiy fanlar sohasidagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari.

### **II bo‘lim.**

#### **Ma’naviyatni anglash.**

**Milliy ma’naviyatimiz ilmiy-nazariy asoslarining shakllanishi.**

**Ma’naviy hayot mezonlari**

**Inson hayotida ma’naviyatning o‘rni va ahamiyati. Jahon ilmi va o‘tmish ajdodlarimiz merosida ma’naviyat masalalarining nazariy jihatdan o‘rganilishi**

Inson hayotining ma’nosи. Inson hayotida ma’naviyatning o‘rni va ahamiyati. Jahon ilmida ma’naviyat masalalari. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ushbu masalaga yangicha yondoshuvning shakllanishi.

Ma’naviyatning soha sifatida mustaqilligi, iqtisod va siyosat sohalari bilan munosabati. Ma’naviyat sohasiga nazariy yondoshuv va uning ahamiyati. Milliy ma’naviyatimiz tarixiy tajribasini ilmiy idrok etish ma’naviyat nazariyasini shakllantirishning asosiy omili sifatida.

Markaziy Osiyoda yaratilgan qadim yozma adabiyotlarda ma’naviyat masalalari. Islom mintaqa madaniyatida ma’naviyat masalalarining nazariy jihatdan shakllanishi. Imam Abu Hamid G‘azzoliyning «Kimiyyoti saodat» asari muqaddimasida ma’naviyat nazariyasining bevosita ishlab chiqilishi. «Dil-podshoh, aql-vazir» kontseptsiyasining

mohiyati. Jaloliddin Rumiyning «Masnaviy» ma’naviy asarida ma’naviyatning ta’rifi. Alisher Navoiy ijodi milliy ma’naviyatimiz qomusi sifatida.

### **Ma’naviyat - botiniy qudrat. Shaxs va millat ma’naviyatining asosiy jihatlari**

Ma’naviyatning turli ta’riflari. Ularning bir-biriga muvofiqligi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ma’naviyatga berilgan ta’riflar va ularning metodologik mohiyati. Shaxs ma’naviyati va milliy ma’naviyat nisbati. Milliy o‘zlikni anglash. Shaxs ma’naviyati ma’naviyat nazariyasining o‘zak tushunchasi sifatida. Shaxs ma’naviyatining asosiy qirralari.

Millat ma’naviyati va milliy ma’naviyat. Milliy ma’naviyatning shakllanishida o‘zga millat vakillarining ishtiroki. Milliy ma’naviyat va mintaqa madaniyati: o‘zaro nisbatlar.

### **Ma’naviyat va ma’rifat. Shaxs va millat ma’naviy takomilining uyg‘unligi.**

Ma’naviyat va ma’rifat. Ma’rifatning tor va keng ma’nolari. Ma’rifat inson qalbiga sayqal berish jarayoni sifatida. Ma’rifat yo‘llari. Ma’naviy kamolot jarayonining turli o‘lchamlari.

Islomgacha ma’naviyat – asotir tafakkuridan milliy o‘zlikni anglash sari. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma’naviyatimiz takomili va ma’rifat yo‘llari: a) Sunna bosqichi – Ibrat ma’rifati; b) Islom ma’rifatchiligi bosqichi – Ilm ma’rifati; v) Tasavvuf tariqatlari bosqichi – Riyozat ma’rifati; g) «Majoz tariqi» bosqichi – Mehr ma’rifati. Yangi davrda milliy ma’naviyatimiz takomilining bosh muammosi – siyosiy va ma’naviy taraqqiyot uyg‘unligi masalasi. «Xavos» va «avom».

### **Ma’naviyat, ruhiyat, madaniyat.**

Ma’naviyat va ruhiyat. Inson tabiatini va shaxs ma’naviyatini. Milliy ma’naviyatimizda ruhiyat muammolarining o‘rganilishi va bu sohada erishilgan yutuqlarning ahamiyati. Ma’naviyat va madaniyat nisbati. Jahon ilmida madaniyat nazariyasi va madaniyatning turli ta’riflari. “Moddiy” va “ma’naviy” madaniyat masalasi. Madaniyat shaxs ma’naviyatining moddiy voqelikdagi izlari sifatida. Shaxs ma’naviyatining tarkibiy jihatlari va madaniyatning tarkibiy qismlari. Jahon madaniyati va mintaqa madaniylari.

“Ma’naviyat asoslari” fani ijtimoiy va ma’naviyatga aloqador fanlar tizimida. “Ma’naviyat asoslari” fanining “Ruhshunoslik”, “Madaniyatshunoslik”, “Nafosatshunoslik”, “Tarbiyashunoslik” kabi inson va jamiyat hayotini o‘rganuvchi turli fanlarga nisbati.

### **Din va ma’naviyat**

Mustaqillik sharoitida denga munosabatning tubdan o‘zgarishi. Din va ma’naviyat: umumiy va farqli jihatlar. Dinning zohiriylari va botiniy jihatlari. Ibodat nima? Imon-e’tiqod ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida. Dinda ilm va ibrat. Taqlidiy va

tahliliy imon tushunchalari. Din siyosatmi, ma'naviyatmi? Shariat, islom huquqi va islom ma'naviyati. Inson qalbiga zo'rlik bilan kirib bo'lmaydi.

Aqidaparastlikning gnoseologik, siyosiy-ijtimoiy va tarixiy ildizlari. Islomda din siyosatdan qachon ajralgan? Diniy aqidaparastlik va ekstremizm – diniy qadriyatlarning totalitarizm tafakkuri ruhidagi g'arazli talqini sifatida. Yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz an'analari ruhida tarbiyalash - ular ongini turli g'arazli "oqimlar" ta'siridan himoyalashning eng samarali yo'li. Diniy bagrikenglik va e'tiqodda ustuvorlik.

### **Ma'naviyat, siyosat va axloq.**

"Axloq ma'naviyatning o'zagi". Axloq va ma'naviyat nisbati. Zamonaviy axloq muammolari. Axloqiy fazilatlar shaxs ma'naviyatining zuhuri sifatida. Xulq va axloq. Iymon-e'tiqod, mehr-shafqat, poklik va xalollik, ahdga vafo ma'naviy barkamol shaxsning axloqiy fazilatlari sifatida.

Ijtimoiy hayot va axloq. Siyosatda huquq va axloq qatlami. Sotsial psixologiya, antropologiya, ma'naviyat nazariyasi va axloqshunoslik fanlarining o'zaro bog'liq jihatlari. Zamonaviy shaxs axloqi. Xulq-atvorda shaxs ma'naviyatining namoyon bo'lishi. Axloqiy qadriyatlar va ularning yosh avlod tarbiyasiga ta'siri.

### **San'at, adabiyot, ma'naviyat.**

Ma'naviyat va nafosat. Shaxs ma'naviyati – inson botiniy go'zalligining asosi sifatida. Ma'naviyat va san'at. Badiiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab etishning o'ziga xos yo'nalishi sifatida. Ramz va timsol - Borliq haqiqatining badiiy ifodalashning asosiy vositalari.

Ijtimoiy ma'naviy muhitni yaratishda san'at turlarining o'mi va ahamiyati. Mustaqil O'zbekistonda san'at va adabiyotning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati.

Ma'naviyat va adabiyot. So'z san'atining shaxs va millat ma'naviyatini shakllantirishdagi alohida ahamiyati. Badiiy adabiyotda ijodkor ma'naviyatining akslanishi. Adabiyot va mehr ma'rifiati. San'atning murakkab turlari va ularda so'z san'atining ishtiroki. Teatr – ibrat maktabi.

## **III bo'lim.**

### **Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari**

#### **Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar.**

#### **Jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz rivojining o'zaro nisbatlari**

Ma'naviyat tarixi va nazariyasi. Milliy ma'naviyat va shaxs ma'naviyati. Milliy ma'naviyat tarixiy hodisa sifatida. Milliy ma'naviyat tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayot tarixi o'rtasidagi farqli jihatlar.

Bashariyat tarixi va ma'naviyat. Ma'naviyat va madaniyat. Turli mintaqalari madaniyatlarini va ularning o'zaro munosabatlari. Mintaqalari madaniyatlarida din va ma'naviyat nisbati. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va milliy ma'naviyatimiz.

Ijtimoiy tarixni davrlashtirish va ma'naviy takomil.

### **Milliy ma'naviyatimiz takomilining asosiy davrlari. Ibtidoiy jamoa davrida ilk ma'naviyat unsurlarining shakllanishi**

Milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomilini davrlashtirish muammolari. Milliy ma'naviyatimiz tarixini o'rganishda manbaalar ahvoli. Osori atiqalar va yozma yodgorliklar. Bevosita va bilvosita ma'lumotlar. Etnografik ma'lumotlar. Turli manbaalarning qiyosiy tahlili. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida turk eli ma'naviy takomilining ramziy ifodasi.

Qadim ma'naviyatimizni anglab etish qiyinchiliklari. Urug' jamoaning paydo bo'lishi - dastlabki ma'naviyat nishonasi. Ibn Xaldun ibtidoiy jamoa va shahar jamoasi haqida. «Avesto»da ibtidoiy jamoa ma'naviyati unsurlarining aks etishi. Jamshid (Yima vaxishta) haqidagi asotir. «Avesto»da tabiatga munosabat va hozirgi ekologik muammolar.

### **Ilk shahar ma'naviyati va «Avesto» kitobi.**

«Avesto» kitobi va «Mazdayasna» e'tiqodi - Markaziy Osiyodagi ilk shahar ma'naviyatini aks ettiruvchi qimmatli manbaa. Qadimshunoslarning izlanishlari. Jarqo'ton va Sopollitepa - O'zbekiston hududidagi ilk shahar (protogorod) timsoli. «Avesto»da ilm va imon nisbati. Axuramazdaning Zardusht tomonidan koinot nuri va Xalloqi olam deb ta'riflanishi. «Avesto»da tavhid e'tiqodi va asotir tafakkur ta'siri.

### **Turkiy toshbitiklar ma'naviyati.**

Movarounnahrda qadim davlatlar va milliy ma'naviyatning shakllanish omillari. Buyuk turk xoqonligi - milliy davlatchilik asosi sifatida Millatning tashkil topishi va milliy birlik uchun kurash. Milliy adabiy tilning shakllanishi. Milliy adabiyotning vujudga kelishi. Turkiy toshbitiklarda milliy goyaning ifodalananishi. «Turk buduni» tushunchasining ma'naviy ahamiyati.

### **Tavhid e'tiqodi va Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyati**

Insonlar ongida asotir tafakkur asoratlarini engib o'tish masalasi. Tavhid e'tiqodi va islom dini. Abu Muslim harakati. Bagdodda «Bayt ul-hikma»ning tashkil topishi. Islom mintaqasi madaniyati shakllanishining siyosiy-ijtimoiy asoslari. Islom ummati va islom dunyosida turkiy xalqlarning mavqeい.

### **Islom mintaqasi madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimiz takomili. Sunna bosqichi**

Sunnaning ma'nosи. Roviylar va muhaddislar. Ilk hadis to'plamlari. Hadis ilmining shakllanishi va Imom Buxoriyning jahonshumul xizmati. Hadis ilmining «oltin asri va sahih hadis to'plamlari. Islom axloqi va Rasululloh (s.a.v.) ibratlari. «Siyrat ar-Rasululloh». Islomiy mazhablarning shakllanishi. Adab ilmi va Ahmad Yugnakiy merosi.

## **Islom ma'rifatchiligi va ratsionalistik tafakkur rivoji**

Islom mintaqasi madaniyatida mantiqiy tafakkurning o'rni. Imom G'azzoliy va Umar Xayyom Borliq haqiqatini anglab etishning turli yo'nalishlari haqida. Kalom ilmi: mo'tazila, ashariya, moturidiya. Forobiy falsafasi va fozil jamiyat orzusi.

Yusuf Xos Hojib va Islom ma'rifatchiligi bosqichida turkiy xalqlar ma'naviyati. Qomusiy allomalar faoliyati. Botiniya nima? «Ixvon us-safo» risolalari. Tasavvufiy qarashlarning shakllanishi. «Ehyoyi ulum ad-din» va «Kimyozi saodat» asarlarining mintaqasi ma'naviy takomilidagi ahamiyati.

## **Tasavvuf tariqatlarining shakllanishi va irfon**

Zohidlik, oshiqlik, oriflik. Ibn Sino va G'azzoliy ishq haqida. Tasavvuf nazariyasi va Ibn al-Arabiyy merosi. Ilm va irfon. Turkistonda tasavvuf: Yassaviya va Kubraviya. Bahouddin Naqshband va tasavvuf irfonining kamoli. Sufiylik yo'lini ixtiyor etganlarning ma'naviy kamolot bosqichlari: Shariat, Tariqat, Ma'rifat, Haqiqat. Nafs tarbiyasi va Riyozat ma'rifati.

## **Milliy ma'naviyatimiz rivojida «Majoz tariqi» bosqichi**

Badiiy adabiyotning mintaqasi madaniyatida tutgan o'rni. Mintaqasi adabiyoti Alisher Navoiy talqinida. Badiiy tafakkur tariqatlari - dunyoni idrok etish va uni ijodiy akslantirishning o'ziga xos yo'llari sifatida. Alisher Navoiy «Majoz ishqisi» haqida. «Dil ba yoru dast ba kor»ning ma'nosasi.

## **Alisher Navoiy ma'naviy olami va yangi davr o'zbek millati ma'naviy qiyofasining shakllanishi**

Turkiy she'riyat va Alisher Navoiy ijodi. Navoiyning ijodiy takomil jarayoni. «Badoyi ul-bidoya»da «vahdat mayi» va «singon safol» timsollari. «Xamsa» ma'naviyati. «Xamsa» dostonlarining zohiriylari ma'nolari va botiniy mohiyatlari. «Lison ut-tayr»da irfoniy va ijtimoiy g'oyalar uyg'unligi.

«Turk elini yakqalam ettim». Bashariyatning yaxlit mohiyatini anglash. Mehr - ijtimoiy hodisa sifatida. «Mahbub ul-qulub» ijtimoiy toifalar ma'naviyati haqida.

«Majoz tariqi»da Baqo va fano nisbati. Tavhid mohiyatining yangicha talqini. Yangi davrning buyuk haqiqati - dunyoni surat va ma'ni yaxlitligida tadqiq va taxsil etish va bahamjihatlikda boshqarishga intilish.

## **Islom mintaqasi madaniyatining Evropaga ta'siri.**

### **Yangi davr ma'naviyatiga o'tish. Islom mintaqasi madaniyatini davri ma'naviy yutuqlarining ommalashuvi bosqichi**

Islom mintaqasi madaniyatining Evropaga ta'siri. «Averroizm». Islom va Reformatsiya. Evropa Uyg'onishi va Sharq madaniyatiga e'tiborning kuchayishi. Evropa ma'rifatchiligidagi ilm va imon ziddiyati.

Shayboniy va Ubaydiy. «Milliy iztirob» she'riyati. Turdi va Mashrab. Yagona Vatan goyasi. «El rabotu to'ra qo'noq». «Yurt egasi» va uning mas'uliyati.

Mashrabning ma'naviyatdagi isyonи. Mirzo Bedil merosining Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatiga ta'siri. Amiriy va Gulxaniy.

### **Milliy ma'naviyatimizning Yangi davr Evropa madaniyati bilan bevosita to'qnashuvi. Milliy Uyg'onish va Jadidchilik ma'naviyati**

Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tanazzul, uning sabablari va oqibatlari. Chor Rossiyasi hukmdorligi va bolshevizm qatag'onlari sharoitida milliy ma'naviyatimiz ahvoli.

Yagona Turkistonning parchalanishi va Rossiya imperiyasining makkorona siyosati. Furqat va Donish ma'rifatchiligi. Muqimiyning ijtimoiy qarashlari.

Jadidchilikning vujudga kelishi. Behbudiy - muftiy va dramaturg. Milliy uygonish va yangi ma'rifatchilik. Ilm-fan va ta'lim-tarbiyaga e'tibor. Islom diniga munosabat. Turkiston muxtoriyati va milliy istiqlolchilik harakatining ma'naviy ahamiyati)

Millat ziyolilarining milliy o'zlikni saqlash sohasidagi urinislari.

Bolsheviklar diktaturasi va xalqlarni o'z milliy ma'naviyatidan begonalashtirish siyosati. «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat» shiorining mantiqsizligi va munofiqona mohiyati.

Jangovor ateizm va «shaxsga sig'inish» kasalligi. Qardosh xalqlar orasiga nifoq solish harakatlari. Milliy ziyolilarni jismonan va ruhan mavh etish - ayovsiz qatag'onlar - millatni manqurtlashtirishning mudhish usuli sifatida.

Marksistik-leninistik ideologiyaning yalpi mustabidligi millatlarning ma'naviy inqiroziga asosiy sabab. Ijtimoiy fanlar total ideologiya iskanjasida. Ziyolilarning millat tarbiyachilaridan mustabid mafkura maddohlariga aylanishi.

### **IV bo'lim. Mustaqillik davri ma'naviyati. Bosh ma'naviy qadriyatlarimiz va inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvida ularning ahamiyati.**

#### **Ma'naviyat va millat tarbiyasi. Borliq haqiqati va Bosh ma'naviy qadriyatlarimiz.**

Mustaqillik davrida xalqimiz milliy ma'naviyatining yuksalishi. Milliy ma'naviyatimizda inson qadrining ulug'lanishi. Qadr va qadriyat. Insonning ongli mavjudot sifatidagi qudrati va mas'uliyati.

Ma'naviyatda qadr muammosi va uning iqtisod va siyosatda akslanishi. Qadr tushunchasining siyosatdagi in'ikosi. Mavqe va maqom. N.Makiavelli falsafasida siyosat va axloqning farqlanishi va buning nazariy ahamiyati.

“Qadr” tushunchasining iqtisodda akslanishi. Qiymat va baho. Evropa ilmida qiymat nazariyasi. K.Marks kiritgan “qo'shimcha qiymat” tushunchasining siyosiy oqibatlari.

Shaxs va millat ma'naviy kamolotining ro'yobga chiqish jarayoni. Oliy ma'naviy qadriyatlar - Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat – Inson ruhining Borliq haqiqati

bilan uyg‘unlashuv bosqichlari (darajalari) sifatida.)

### **Vatan tuyg‘usi.Tabiat va inson.**

Vatan tuyg‘usi - Oliy qadriyat. Milliy ma’naviyatimizda "Vatan" timsol-tushunchasining ma’no jilolari. Insonning moddiy borliqqa ma’naviy munosabati. Ekologik muammolarning hal etilishida ma’naviyat omili. Tabiatga mulkiy munosabat. Uning ma’naviy jihatlari.

### **Inson va shaxs. Oila ma’naviyati.**

Inson qadri va Shaxs mas’uliyati. Irsiyat, ruhiyat, ma’naviyat. Inson tabiatini va Allohning inoyatlari. Odob, axloq, ma’naviyat. Ma’naviy tarbiya vosita va usullari pog‘onadorligi. Shaxsning iqtisodiy mustaqillik mas’uliyati. Shaxs ma’naviyatining zohiriyligi va botiniy alomatlari. ularning nafosat bilan munosabati.

Oila ma’naviy muhiti. Shaxs, oila, jamiyat. Oila qurish mas’uliyati. Oilada er kishining mavqeい. Ayol – oilaning asosi. Ota –onaning farzand oldidagi burchi. Sog‘lom avlod - jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili. Yosh avlodning mustaqillik ma’suliyati va ota-onalik hurmati. Oilada 3 avlod hamkorligi.

Milliy turmush tarzi tushunchasi va uning ma’naviy estetik jihatlari.

Oilaviy burch va mas’uliyatning ijtimoiy va ma’naviy asoslari. Oilaviy munosabatlar madaniyatining milliy va diniy jihatlari. Jamoatchilik fikrining oilaviy hayot va yoshlar tarbiyasiga ta’siri.

### **Shaxs va millat. Vatan tuyg‘usi va fuqarolik mas’uliyati.**

Shaxs, millat, bashariyat. Inson huquqlari va shaxsning millat oldidagi mas’uliyati. Islomda shaxs erkiga munosabat. Aqidaparastlik – ma’naviy mahdudlikdir. Ijtimoiy faollik - ma’naviyat belgisi. Shaxs erki va qonun ustivorligi. “Haq so‘zni berkitmang”.

Vatanga munosabat: siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy jihatlar. Mamlakat va millat. “O‘zbekiston xalqi” tushunchasi. Milliy manfaatlar va milliy adolat. Ona-zamin – bani bashar Vatani sifatida. “Tarixiy vatan” va “fuqarolik” tushunchalari. Vatan obodligi qanday ta’min etiladi?

### **Adolat mezoni. Milliy ma’naviyatimizda xalq hokimiyyatchiligiga munosabat.**

Adolat - ijtimoiy hayotda ma’naviyatning namoyon bo‘lishi sifatida. Milliy ma’naviyatimizda xalq hokimiyyatchiligiga munosabat. “Islomi davlat” tushunchasi haqida. Sekulyarizm printsipining ma’naviy mohiyati. Ijtimoiy hayotda iqtisod, siyosat, ma’naviyat yo‘nalishlarining uyg‘unligi – adolatli jamiyatning asosiy belgisi sifatida. Qonun hukmronligi - siyosatdagi ma’naviyat.

## **Bozor iqtisodi va ma’naviyat. Tadbirkorning bosh ma’naviy fazilati.**

Bozor iqtisodi iqtisodiy adolatdir. Ma’naviy merosimizda bozor iqtisodiga munosabat. Bozor ma’naviyati. Madaniyat bozori. Tadbirkor kim? Tadbirkor ma’naviyati. Mustaqil O’zbekistonda bozor iqtisodining shakllanish jarayonida siyosiy ijtimoiy va ma’naviy muammolarning o‘zaro nisbati va ularning tadrijiy echimi.

### **Ma’naviyat va ijtimoiy adolat. Ijtimoiy toifalar tabiatini va ma’naviyati.**

Uyg‘un fuqarolar jamiyatini shakllantirishda shaxs va millat ma’naviy takomilining dolzarb muammolari. Shaxs ma’naviyati va fuqaro mas’uliyati. Qonun ustuvorligi ijtimoiy adolat asosi. Jamiyat hayotida qonun, axloq va ma’naviyatning o‘zaro nisbatlari. Shaxsning millat oldidagi mas’uliyati. Ijtimoiy faollik – ma’naviyat belgisi.

Ijtimoiy toifalar tabiatini va ma’naviyati. Alisher Navoiy dehqon va darvesh haqida. Ahli futuvva masalasi: Ishchi va kosib. Rahbar ma’naviyati. O’zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov rahbarlarning uch toifasi haqida. Mustaqillik davrida ijtimoiy toifalar masalasiga munosabatning o‘zgarishi.

### **Haqiqat va bashariyat. Tafakkur turlari va ma’naviyat.**

Haqiqat nima? Turli millatlar ma’naviyati yagona Borliq haqiqatining jilolari sifatida. Borliq haqiqatini anglab etishning turli yo‘nalishlari va bilim turlari. Tavhidiy tafakkur va uning mohiyati.

Tafakkur turlari va ma’naviyat: a) mantiqiy tafakkur; b) san’at, adabiyot, ma’naviyat; v) xalq ijodi va ma’naviyat; g) marosimlar ma’naviyati. Taqdir va tadbir. Milliy ma’naviyatimizda "ahli qabul" va "ahli rad" tushunchalari.

Ma’naviyat, falsafa va ilm. Ma’naviyat va falsafada Borliq haqiqatiga munosabat.

## **O’zbekiston va jahon. Globallashuv va axborotlashuv sharoitida ma’naviyatga tahdid va uni bartaraf etish yo’llari.**

O’zbekiston va jahon: ta’lim – tarbiyada milliy ma’naviyat va jahon madaniyati an’analari uyg‘unligini ta’minlash yo‘lida. Yosh avlod ma’naviyatini shakllantirishda ota-onasi va mahallaning mas’uliyati. Islomda ota-onaga ehtirom va ularning farzand oldidagi burchlari. Yosh avlod ma’naviy-axloqiy tarbiyasida xalq pedagogikasi manbalarining ahamiyati. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ma’naviy tarbiya.

Globallashuv jarayonlari va ma’naviyatga tahdid. Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya. Evropa pedagogika ilmining yutuqlari va muammolari. Milliy ma’naviy merosimizda yosh avlod tarbiyasiga oid masalalarining ishlab chiqilishi. Shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ta’lim tarbiya muassasalarining mas’uliyati. Sho‘rolar davrida milliy pedagogik merosni o‘rganish ahvoli va ideologik taziyqning oqibatlari.

Ma’naviyat va jamiyatning yangilanishi. Axborot, ma’lumot, bilim nisbatlari. Axborot texnologiyalari. Ilm va ta’limning axborotlashuvi. Axborotlashuv va global

jarayonlarining o‘zaro munosabati. Axborot xuruji va uning oldini olish zaruriyati.

### **Inson qalbiga yo‘l.**

### **Mustaqil O‘zbekistonda yosh avlod ma’naviy tarbiyasining dolzarb muammolari. Ziyoli mas’uliyati.**

Ziyolining millatning ma’naviy murabbiysi sifatidagi ijtimoiy mas’uliyati va bugungi mavjud holati. Borliq haqiqatini anglab etishga tinimsiz va izchil intilish, hayotda anglab etgan haqiqatlariga o‘zi birinchi bo‘lib amal qilish va ularni o‘zgalarga etkazish – ziyolining Haq va millat oldidagi asosiy burchi sifatida.

Ta’lim tizimi va ijtimoiy fanlar. Ziyolilarimiz ongidagi eski mafkura asoratlari va olimning jahon ilmi oldidagi mas’uliyati masalasi. Komil inson tarbiyasida ustozning hissasi. Milliy ma’naviyatimiz an’analarida ustoz va shogird munosabatlari. Ustozning shogirdga mehri va talabchanligi. Rahbar ma’naviyati.

Milliy ma’naviyat va millat tarbiyasi. Tarbiya sub’ekti va ob’ekti. Millat tarbiyasi kimning qo‘lida? Tarbiyachilarni tarbiya qilish masalasi. Mustaqil O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasiga e’tibor. Yosh avlod tarbiyasi va ta’lim tizimidagi islohotlar.

Ilm va ta’lim. Ma’rifat yo‘llari va milliy tarbiya nazariyasi. Shaxsning ma’naviy shakllanishida ta’lim va tarbiya nisbati. Iste’dod va mas’uliyat.

### **Seminar mashg’ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Ma’naviyat tarixi va nazariyasi. Milliy ma’naviyat va shaxs ma’naviyati. Milliy ma’naviyat tarixiy hodisa sifatida. Milliy ma’naviyat tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayat tarixi o‘rtasidagi farqli jihatlar.

Bashariyat tarixi va ma’naviyat. Ma’naviyat va madaniyat. Turli mintaqa madaniyatları va ularning o‘zaro munosabatlari. Mintaqalarda madaniyatlarida din va ma’naviyat nisbati. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va milliy ma’naviyatimiz. Ijtimoiy tarixni davrlashtirish va ma’naviy takomil.

Milliy ma’naviyatimizning tarixiy takomilini davrlashtirish muammolari. Milliy ma’naviyatimiz tarixini o‘rganishda manbaalar ahvoli. Osori atiqalar va yozma yodgorliklar. Bevosita va bilvosita ma’lumotlar. Etnografik ma’lumotlar. Turli manbaalarning qiyosiy tahlili.

Milliy ma’naviyatimiz takomilining asosiy davrlari. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida turk eli ma’naviy takomilining ramziy ifodasi. Qadim ma’naviyatimizni anglab etish qiyinchiliklari.

Urug‘ jamoaning paydo bo‘lishi - dastlabki ma’naviyat nishonasi. Ibn Xaldun ibtidoiy jamoa va shahar jamoasi haqida. «Avesto»da ibtidoiy jamoa ma’naviyati unsurlarining aks etishi. Jamshid (Yima vaxishta) haqidagi asotir. «Avesto»da tabiatga munosabat va hozirgi ekologik muammolar.

«Avesto» kitobi va «Mazdayasna» e’tiqodi - Markaziy Osiyodagi ilk shahar ma’naviyatini aks ettiruvchi qimmatli manbaa. Qadimshunoslarning izlanishlari. Jarqo‘ton va Sopollitepa - O‘zbekiston hududidagi ilk shahar (protogorod) timsoli. «Avesto»da ilm va imon nisbati. Axuramazdaning Zardusht tomonidan koinot nuri va

Xalloqi olam deb ta'riflanishi. «Avesto»da tavhid e'tiqodi va asotir tafakkur ta'siri.

Movarounnahrda qadim davlatlar va milliy ma'naviyatning shakllanish omillari. Buyuk turk xoqonligi - milliy davlatchilik asosi sifatida Millatning tashkil topishi va milliy birlik uchun kurash. Milliy adabiy tilning shakllanishi. Milliy adabiyotning vujudga kelishi. Turkiy toshbitiklarda milliy goyaning ifodalanishi. «Turk buduni» tushunchasining ma'naviy ahamiyati.

Insonlar ongida asotir tafakkur asoratlarini engib o'tish masalasi. Tavhid e'tiqodi va islom dini. Abu Muslim harakati. Bagdodda «Bayt ul-hikma»ning tashkil topishi. Islom mintaqasi madaniyati shakllanishining siyosiy-ijtimoiy asoslari. Islom ummati va islom dunyosida turkiy xalqlarning mavqeい.

Islom mintaqasi madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. Sunna bosqichining mohiyati. Roviylar va muhaddislar. Ilk hadis to'plamlari. Hadis ilmining shakllanishi va Imom Buxoriyning jahonshumul xizmati. Hadis ilmining «oltin asri va sahih hadis to'plamlari. Islom axloqi va Rasululloh (s.a.v.) ibratlari. . «Siyrat ar-Rasululloh». Islomiy mazhablarning shakllanishi. Adab ilmi va Ahmad Yugnakiy merosi.

Islom mintaqasi madaniyatida mantiqiy tafakkurning o'rni. Islom ma'rifatchiligi va ratsionalistik tafakkur rivoji. Imom G'azzoliy va Umar Xayyom Borliq haqiqatini anglab etishning turli yo'naliishlari haqida. Kalom ilmi: mo'tazila, ashariya, moturidiya. Forobiy falsafasi va fozil jamiyat orzusi.

Yusuf Xos Hojib va Islom ma'rifatchiligi bosqichida turkiy xalqlar ma'naviyati. Qomusiy allomalar faoliyati. Botiniya nima? «Ixvon us-safo» risolalari. Tasavvufiy qarashlarning shakllanishi. «Ehyoyi ulum ad-din» va «Kimyoyi saodat» asarlarining mintaqasi ma'naviy takomilidagi ahamiyati.

XII-XIII asrlar islom mintaqasida tasavvuf tariqatlarining shakllanishi. Zohidlik, oshiqlik, oriflik. Ibn Sino va G'azzoliy ishq haqida. Tasavvuf nazariyasi va Ibn al-Arabiy merosi. Ilm va irfon. Turkistonda tasavvuf: Yassaviya va Kubraviya. Bahouddin Naqshband va tasavvuf irfonining kamoli. Sufiylik yo'lini ixtiyor etganlarning ma'naviy kamolot bosqichlari: Shariat, Tariqat, Ma'rifikat, Haqiqat. Nafs tarbiyasi va Riyozat ma'rifiati.

Badiiy adabiyotning mintaqasi madaniyatida tutgan o'rni. Mintaqasi adabiyoti Alisher Navoiy talqinida. Badiiy tafakkur tariqatlari - dunyoni idrok etish va uni ijodiy akslantirishning o'ziga xos yo'llari sifatida. Alisher Navoiy «Majoz ishqisi» haqida. «Dil ba yoru dast ba kor»ning ma'nosи. Milliy ma'naviyatimiz rivojida «Majoz tariqi» bosqichining alohida ahamiyati.

Turkiy she'riyat va Alisher Navoiy ijodi. Navoiyning ijodiy takomil jarayoni. «Badoyi' ul-bidoya»da «vahdat mayi» va «singon safol» timsollari. «Xamsa» ma'naviyati. «Xamsa» dostonlarining zohiriylari ma'nolari va botiniy mohiyatlari. «Lison ut-tayr»da irfoniy va ijtimoiy g'oyalar uyg'unligi.

«Turk elini yakqalam ettim». Bashariyatning yaxlit mohiyatini anglash. Mehr - ijtimoiy hodisa sifatida. «Mahbub ul-qulub» ijtimoiy toifalar ma'naviyati haqida. Alisher Navoiy ma'naviy olami va yangi davr o'zbek millati ma'naviy qiyofasining shakllanishi.

«Majoz tariqi»da Baqo va fano nisbati. Tavhid mohiyatining yangicha talqini. Yangi davrning buyuk haqiqati - dunyoni surat va ma'ni yaxlitligida tadqiq va taxlil

etish va bahamjihatlikda boshqarishga intilish.

Islom mintaqasi madaniyatining Evropaga ta'siri. «Averroizm». Islom va Reformatsiya. Evropa Uyg'onishi va Sharq madaniyatiga e'tiborning kuchayishi. Evropa ma'rifatchiligidagi ilm va imon ziddiyati.

Shayboniylar va Ashtarkoniylar davri ma'naviyati. Shayboniy va Ubaydiy. «Milliy iztirob» she'riyati. Turdi va Mashrab. Yagona Vatan g'oyasi. «El rabotu to'ra qo'noq». «Yurt egasi» va uning mas'uliyati. Mashrabning ma'naviyatdagi isyon. Mirzo Bedil merosining Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatiga ta'siri. Amiriylari Gulxaniy.

Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotidagi tanazzul, uning sabablari va oqibatlari. Yagona Turkistonning parchalanishi va Rossiya imperiyasining makkorona siyosati. Furqat va Donish ma'rifatchiligi. Muqimiyning ijtimoiy qarashlari.

Jadidchilikning vujudga kelishi. Behbudiy - muftiy va dramaturg. Milliy uygonish va yangi ma'rifatchilik. Ilm-fan va ta'lim-tarbiyaga e'tibor. Islom diniga munosabat. Turkiston muxtoriyati va milliy istiqlolchilik harakatining ma'naviy ahamiyati)

Millat ziyolilarining milliy o'zlikni saqlash sohasidagi urinishlari. Bolsheviklar diktaturasi va xalqlarni o'z milliy ma'naviyatidan begonalashtirish siyosati. «Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat» shiorining mantiqsizligi va munofiqona mohiyati.

Jangovor ateizm va «shaxsga sig'inish» kasalligi. Qardosh xalqlar orasiga nifoq solish harakatlari. Milliy ziyolilarni jismonan va ruhan mavh etish - ayovsiz qatag'onlar - millatni manqurtlashtirishning mudhish usuli sifatida.

Marksistik-leninistik ideologiyaning yalpi mustabidligi millatlarning ma'naviy inqiroziga asosiy sabab. Ijtimoiy fanlar total ideologiya iskanjasida. Ziyolilarning millat tarbiyachilaridan mustabid mafkura maddohlariga aylanishi.

Istiqlol va ma'naviyat. Mustaqillik davrida milliy ma'naviyatimizning mohiyatan qayta tiklanish jarayoni. Milliy mustaqillik sharoitida ma'naviyat masalalarining dolzarblashuvi va buning sabablari. Insonlar ongidagi eski mafkura asoratlaridan qutulish muammosi va yangicha tafakkur zarurati.

Milliy mustaqilligimizning uch asosidan biri ma'naviy mustaqillikning tiklanishida O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning xizmatlari. Buyuk ajdodlarimizga ehtirom. Ma'naviy merosning to'laqonli tiklanish yo'lidagi sa'yiy-harakatlar. Imon - e'tiqod va milliy an'analarimiz.

Yosh avlod tarbiyasi va ta'lim tizimidagi islohotlar. O'zbekiston va jahon: ta'lim – tarbiyada milliy ma'naviyat va jahon madaniyati an'analari uygunligini ta'minlash yo'lida.

Ma'naviyat va ma'rifat. Shaxs va millat ma'naviy takomilining uyg'unligi. Asotir tafakkur va milliy o'zlikni anglash. Go'daklik davri - ibrat ma'rifati. o'smirlik davri - ilm ma'rifati. Balog'at yoshi - riyozat ma'rifati. Keksalik davri - mehr ma'rifati. Shaxs va millatning siyosiy va ma'naviy taraqqiyoti uyg'unligi. «Xavos» va «avom».

Ma'naviyat tarixini o'rganish sohasidagi muammolar. Ijtimoiy fanlar metodologiyasi va ma'naviyat tarixiga yondashuv. «Ma'naviyat asoslari» fani bo'yicha nashr etilgan kitoblarda milliy ma'naviyat tarixinining yoritilishi. «Sharq uyg'onishi» masalasi. Manbaalarni o'rganishda mustaqillik davrida erishilgan yutuqlar va kelajak

rejalari. Islom dini, tasavvuf va milliy ma’naviyatimiz nisbatlari: yondashuvlar va talqinlar.

San’atning ma’naviy asoslari. San’at va ma’naviyat. San’at va uning tarbiyaviy ahamiyati. San’atning vujudga kelishi va uning mohiyati. Evropa mintaqasi madaniyatida san’at va madaniyat nisbati. Shaxs ma’naviy ehtiyojini shakllantirishda san’atning o’rni.

“Axloq ma’naviyatning o’zagi”. Axloqning va ma’navitya nisbati. Axloq haqidagi qarashlar tarixi. Axloqning asosiy kategoriyalari: yaxshilik va yomonlik, Axloq va ixtiyor erkinligi. Axloq va xulq-atvor uyg‘unligi. Axloqning ijtimoiy muhit bilan aloqadorligi. Xulq atvor. Xulq atvor motivlari. Motiv va motivatsiya. Zamonaviy shaxs axloqi. Xulq atvorda ichki madaniyatning namoyon bo‘lishi. Zamonaviy axloq muammolari. Bioetika muammolari

Milliy turmush tarzi tushunchasi va uning ma’naviy estetik jihatlari. Ijtimoiy ma’naviy muhitni yaratishda san’at turlarining o’rni va ahamiyati. Mustaqil O’zbekistonda san’at va adabiyotning yosh avlod ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati.

Oila ma’naviyati. Sog‘lom avlol-jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili.

Oilaviy burch va mas’uliyatning ijtimoiy va ma’naviy asoslari. Oilaviy munosabatlar madaniyatining milliy va diniy jihatlari.

Jamoatchilik fikrining oilaviy hayot va yoshlari tarbiyasiga ta’siri. Ota-onalar ibrat-farzandlar ziynati. Axloqiy qadriyatlar va ularning farzand tarbiyasiga ta’siri. Farzandlik burchining ma’naviy asoslari.

Ma’naviyat va jamiyatning yangilanishi. Axborot, ma’lumot bilim uyg‘unligi. Axborot texnologiyalari. Informatika. Ijtimoiy informatika. Kompyuter savodxonligi va savodsizligi. Ta’limning axborotlashuvi. Fanning axborotlashuvi. Ishlab chiqarishning axborotlashuvi. Axborotlashuv va global jarayonlar uyg‘unligi. Mehnat axborotlashuvning bo‘sh vaqtini va ma’naviy madaniyatni rivojlantirishdagi o’rni. Axborot xuruji va uning oldini olish zaruriyati.

### **Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

#### **1. Darslik va o‘quv qo’llanmalarning boblari va mavzularini o’rganish.**

Bunday tashkiliy shakl, odatda birinchi kurs talabalari uchun tavsiya etiladi, chunki bu toifa talabalarning mustaqil tahsil olish tarjibasi kam bo‘ladi. Bunday ish natijalari seminar, kollokviumlarda hamda referatlar, individual berilgan vazifalar bo‘yicha tekshiriladi.

**2. O’zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning mavzuga oid asarlarini o’rganish.** Prezident asarlarida bayon qilingan mustaqil O’zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari, o’tmishtajdodlarimiz ma’naviy merosiga munosabat, ma’naviyatning inson hayotidagi o’rni va ahamiyatiga oid nazariy fikrmulohazalari talabalar tomonidan seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik, referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish chog‘ida mustaqil o’rganiladi va olingan bilimlar seminar mashg‘ulotlari, test usullari, referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarni yoqlash chog‘ida tekshiriladi.

**3. Tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismlarini o’zlashtirish.** Bunda o‘qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo‘ladi.

Tarqatma materiallar hajmi har bir ma’ruza uchun 5-8 sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

**4. O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash.**

Bu usul ma’ruza mashg‘ulotlari hamda amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanishi mumkin.

**5. Fanning qismlari va mavzulari ustida ishslash.** Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya, maqolalar), asl manbalar bilan ishslash, turli jadvallar, chizmalar, test dasturlari, referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarni bajarish chog‘ida amalga oshiriladi. Mustaqil tahsilning bu shakllari barcha kurs talabalariga tavsiya etiladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

**6. Asl manbalar ustida ishslash.** Ilohiy kitoblar, ulug‘ ajdodlarimizning ma’naviy merosi (Qur’oni karim, hadisi shariflar, “Avesto”, turkiy toshbitiklar, Forobiy, G‘azzoliy, Yassaviy, Navoiy va boshqalarning asarlari) asl matnlar va tarjimalarni o‘rganish asosida mustaqil ta’lim jarayonida talabalar tomonidan o‘zlashtirib boriladi va olingan bilimlar seminar mashg‘ulotlari, test usullari, referatlar, kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarni yoqlash shakllarida tekshirib boriladi. Natijalar reyting nazoratida aks ettiriladi.

**7 Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq holda fanning muayyan qism va mavzularini chuqur o‘rganish.** Mustaqil ishning bu turi barcha semestrlarda talabalarga tavsiya etiladi va talabalarning ilmiy-nazariy konferentsiyalari yoki kafedra qoshidagi maxsus nazariy seminarlarda ma’ruza qilish orqali natijalari tekshiriladi.

**8. Faol o‘qitish metodlaridan foydalanib mashg‘ulotlar o‘tkazish.** Talabalar tomonidan fan va ta’lim texnologiyalarining dolzarb muammolari bo‘yicha tayyorlangan faol o‘qitish metodlarini (o‘yinli texnologiyalar, munozara, seminar va boshqalarni) qo‘llagan holda mashg‘ulotlar tashkil etish.

**9. Elektron darsliklar, avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash.** Bunday mashg‘ulotlar va nazorat usullari ma’ruzalar, seminar va amaliy mashg‘ulotlar doirasida va reyting nazoratlari sifatida keng qo‘llanilishi nazarda tutiladi.

**10. Joylardagi amaliy mashg‘ulotlar.** Fan mavzularini o‘tish jarayonida tegishli yo‘nalishdagi muzeylar, ko‘rgazmalar, teatr spektakllariga talabalarning uyushgan holda borishlari tashkil etiladi va keyingi amaliy mashg‘ulotlarda taassurotlar muhokama qilinadi.

**11. Tegishli fan va san’at sohasidagi yirik mutaxassislar va ijodkorlar bilan uchrashuvlar.** Yil davomida imkoniyatlardan kelib chiqqan holda shunday uchrashuv va suhbatlar amaliy mashg‘ulotlar doirasida yoki darsdan tashqari vaqtarda o‘tkaziladi.

**12. O‘quv rejasidagi ayrim fanlar bo‘yicha eksternat.**

**13. Masofaviy ta’lim.**

## **Ma’naviyatshunoslik fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari**

1. Milliy ma’naviyatimizni tiklashga ilk harakatlar va milliy mustaqilligimizga zamin hozirlanishi.
2. Mustaqillik sharoitida ma’naviyat masalalarining dorlzarbligi va buning sabablari.
3. Siyosiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik, ma’naviy mustaqillik va ularning o‘zaro bog‘liqligi.
4. Eski mafkura asoratlaridan qutulish muammosi va yangicha tafakkur zarurati.
5. O‘zbekiston respublikasi prezidenti I.A. Karimovning ma’naviyat masalalariga alohida e’tibori.
6. Mustaqillik davrida ma’naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi.
7. Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari.
8. Milliy-ma’naviy qadriyatlar milliy istiqlol g‘oyasining tayanchi sifatida.
9. Mustaqillik davrida ajdodlarimiz ma’naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi.
10. Turkiy toshbitiklar va ularda milliy o‘zlikni anglash jarayonining aks etishi.
11. Ko‘hna yozma yodgorliklarda aks etgan davlat va jamiyat boshqaruvining ma’naviy jihatlari.
12. “Avesto” qadriyatlarining bugungi kundagi o‘rni.
13. Hadis ilmi va yuksak insoniy fazilatlar hamda qadriyatlar tizimining shakllanishi.
14. Abu Nasr Forobiyning fozil jamiyat haqidagi fikrlari va uning bugungi kundagi ahamiyati.
15. Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvuf tariqatlari va diniy, milliy bag‘rikenglik.
16. Ibn Sino, Beruniylarning jahon ilmi taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari.
17. XIV-XVI asrlardagi ma’naviy muhitning asosiy xususiyatlari va ijtimoiy-siyosiy hayotdagи siljishlar.
18. Amir Temur va temuriylar davridagi milliy ma’naviyatimiz kamolotining sabablari.
19. Amir temur tuzuklarida davlat va jamiyatni boshqarish tamoyillarining yurt ravnaqidagi ahamiyati.
20. Navoiyning milliy ma’naviyatimiz takomilidagi o‘rni.
21. Navoiyning inson axloq-odobi, mansabdorlarning ma’naviy qiyofasi, davlat va jamiyatni boshqarish tamoyillari haqidagi fikrlarining bugungi kundagi ahamiyati.
22. “Boburnoma”da vatan tuyg‘usi.
23. XYI-XIX asrlardagi siyosiy tanazzul va uning ma’naviy evrilish bilan bog‘liqligi.
24. Rus bosqini va siyosiy qaramlikning ma’naviy sabablari.
25. O‘zbek ma’rifatparvarlarining ma’naviyat-ma’rifatni tiklash borasidagi urinislari.
26. Milliy uyg‘onish va jahon taraqqiyoti yo‘liga kirish g‘oyalari.

27. XX asr boshlarida jamiyatdagi ma'naviy evrilish sharoitida o'zbek ziyolilarining ma'rifatchilik g'oyalarini ro'yobga chiqarish yo'lidagi harakatlari.
28. XX asr boshlarida turkiston o'lkasida ijtimoiy-siyosiy harakatchilikning ma'naviy tayanchlari.
29. Bol'shevizm qatag'onlari va milliy ziyolilar taqdiri.
30. Sho'ro hukumatining milliy siyosati va uning ma'naviy-madaniy oqibatlari.
31. Ma'naviy qadriyatlarning umumbashariy va milliy jihatlari.
32. O'zbekiston fuqarosi bo'lish sharafi va mas'uliyati.
33. Milliy istiqlol g'oyasining ma'naviy negizlari.
34. Ekologiya va ma'naviyat.
35. Mulk huquqining ma'naviy ahamiyati.
36. Inson tabiatи va ma'naviyat.
37. Tadbirkor ma'naviyati.
38. Oila ma'naviy muhitining shaxs tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati.
39. Shaxsiy ibrat va ma'naviy tarbiya.
40. Shaxs va millat ma'naviyatining o'zaro bog'liqligi.
41. Shaxsning millat oldidagi mas'uliyati.
42. Ijtimoiy faollik – shaxs ma'naviyatining muhim belgisi sifatida.
43. Shaxs erkinligi – ma'naviy kamolotning zaruriy sharti.
44. Adolat – ma'naviyatning ijtimoiy hayotdagi aksi sifatida.
45. Siyosat va axloqning o'zaro bog'liqligi.
46. Qonun ustuvorligi tamoyilining ma'naviy mazmuni.
47. Fuqarolik jamiyatining ma'naviy asoslari.
48. Ijtimoiy adolat tamoyilining jamiyat ma'naviy muhitiga ta'siri.
49. Vijdon erkinligi va ijtimoiy adolat.

## **Foydalilaniladigan asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar, elektron ta’lim resurslari hamda qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxati**

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari:**

1. Каримов И.А. Асарлар 1-19-жиллар. –Т.: Ўзбекистон, 1996-2011
2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. – Т.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008 yil.
3. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шаротида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.
4. Каримов И.А. Асосий вазифамиз ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаравонлигини янада юксалтиришидир. – Т.:Ўзбекистон, 2010. -80 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш устивор мақсадимиздир” ҳамда ”Асосий вазифамиз ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаравонлигини янада юксалтиришидир” номли маъruzalарини ўрганиш бўйича ўқув услубий мажмуя.-Т.: Иқтисодиёт, 2010. -340 б
6. Каримов И.А. “Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон” Мустақилликнинг 19 йиллигига бағишлиланган маъруза. /Халқ сўзи газетаси. 2010 йил 1 сентябр
7. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2011 yil.

### **Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:**

1. Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз асослари. Т.:«Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти» нашриёти, 2006 йил.
2. Шайхова Х. Назаров Қ. Умуминсоний қадриятлар ва маънавий камолот. Т.: 1992 йил.
3. Маънавият юлдузлари. Т.: 1999 йил.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Қуръони Карим маъноларининг таржимаси. Т., 2005 йил.
2. Имом Бухорий. Жомеъ ас-саҳиҳ. 1-4 жиллар. Т., 1990-1995 йил.
3. Ўзбекистон Конституцияси. Т., 2008 йил.
6. «Маънавият ва маърифат» жамоатчилик маркази фаолиятини янада такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш тўғрисида Ўзбекистон республикаси Президентининг фармони. Т., 1996 йил.
7. Ўзбекистон республикаси Президентининг “Маънавият ва маърифат” жамоатчилик маркази фаолиятини янада такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш тўғрисида”ги фармонини бажариш вазифалари ҳақида. Т., 1996 йил.
8. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилд. Т., 1997-2003 йил.

9. Комил маънавият - мустақиллик таянчи. Т., 1997 йил.
10. Маънавият – масъуллик. Т., 1997 йил.
11. Маънавиятнинг ойдин йўли. Т., 1997 йил.
12. Маънавият ва комиллик. Т., 1997 йил.
13. Комилов Н. Комил инсон ҳақида 4 рисола, Т., 1997 йил.
14. Қосимов Б. Миллий уйғониш. Т., 2002 йил.
15. Авесто. Т. 2001 йил.
16. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т. 1997 йил.
17. Беҳбудий. Танланган асарлар. Т. 1999 йил.
18. Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. Т., 2000 йил.
19. Faфуров F. Шарқ жавоҳирлари. Т., 2000 йил.
20. Ризаев Ш. Саҳна маънавияти. –Т., 2000 йил.
21. Сайдов У. Европа Маърифатчилиги ва Миллий Уйғониш – Т., 2004 йил.
22. Иброхимов А, Султонов X, Жўраев Н. Ватан туйғуси. Т., 1996 йил.
23. Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. Т., 2000 йил.
24. Абилов Ў. Миллий ғоя. Маънавий омиллар. Т., 1999 йил.
25. Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., 1998 йил.
26. Виждан эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисидаги қонуннинг янги таҳрири. Т., 1998 йил.
27. Бобомуродов А. Ислом одоби ва маданияти. Т., 1995 йил.
28. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. Т., 1996 йил.
29. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. Т., 1998 йил.
30. Саттор М. Ўзбек удумлари. Т, 1993 йил.
31. Болиев А. Раҳбар маънавияти.- Т., 2002 йил.
32. Махмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. Т., 2001 йил.
33. Содикова Т. Мехр қолур. Т., 1997 йил.

#### **Elektron ta’lim resurslari:**

1. [www.pilosophy.ru](http://www.pilosophy.ru)
2. <http://www.antropology.ru>
3. <http://www.falsafa.dc.uz>.
4. <http://www.milliymanaviyat.uz>

